

MA'NAVIYAT VA AXBOROT: JAMIYAT TAQDIRI

Yo'ldashev Safoxon A'loxon o'g'li,

Namangan davlat universiteti Tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya:

Ushbu maqola yoshlar orasida ma'naviyat hamda axborotga bo'lgan ehtiyoj, yoshlarda ma'naviyatni shakllantirish hamda yetuk shaxs tarbiyasida ma'naviyatning ahamiyati, axborot istemolining asosiy talab va shartlari, ta'lim, ma'naviyat va axborotning uzviyligi borasidagi fikr-mulohazalardan iborat.

Tayanch so'zlar: ma'naviyat, axborot, monipulyatsiya, mediokratiya, ijtimoiy tarmoq, mental xususiyat.

ДУХОВНОСТЬ И ИНФОРМАЦИЯ: СУДЬБА ОБЩЕСТВА

Юлдашев Саfoxон Аълохон угли,

студент 2 курса исторического факультета

Наманганского государственного университета

Аннотация:

В данной статье рассматривается потребность в духовности и информации у молодежи, формирование духовности у молодежи и значение духовности в воспитании зрелой личности, основные требования и условия потребления информации, интеграция образования, духовность, а информация состоит из соображений.

Ключевые слова: духовность, информация, манипулирование, посредственность, социальная сеть, ментальная черта.

SPIRITUALITY AND INFORMATION: THE FATE OF SOCIETY

Yuldashev Safokhan Alokhanovich,

2nd year student Namangan State University,

Department of History

Annotation:

This article discusses the need for spirituality and information among young people, the formation of spirituality in young people; the importance of spirituality in the education of mature people; the main requirements and conditions of information consumption; and the integration of education, spirituality, and information. consists of considerations.

Key words: spirituality, information, manipulation, mediocracy, social network, mental trait.

Kirish

Hozirgi davrni insoniyat tamaddunining ilm-fan taraqqiyoti hamda innovatsion yutuqlari, insonlar hayot tarzi va hayotning boshqa sohalarida o'z taraqqiyotining yuksak darajasiga yetayotgan bir davri deb bema'lol ayta olamiz. Shu bilan birga hozirgi davr insoniyat manfaatlari hamda yo'llari bir chorrahada tutashgan davr hisoblanadi. Bu chorraha vazifasini hozirgi kunda axborot tarqatish, almashish va ijtimoiy-masofaviy munosabat va muloqotga kirishish vositasiga aylangan ijtimoiy tarmoqlar amalga oshirmoqda. Xususan "dunyoda 4,66 milliard internet foydalanuvchisi, 4,2 milliard ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi, 5,22 milliard mobil aloqa foydalanuvchisi, o'rtacha 6h54 internet sarflagan"¹. Ushbu statistikaning o'zi ham dunyo aholisining 60 %dan ortiq qismi bevosita "online" foydalanuvchi ekanligini ko'rsatadi. Ijtimoiy tarmoqlarda har kuni minglab axborotlar joylab boriladi. Ular orasida ilm-fan va texnika yutuqlari, yangilik va turli hildagi voqea-hodisalar bilan bir qatorda inson ruhiyati, ongi va fikrlashiga, dunyoqarashi va mafkurasiga salbiy ta'sir etadigan. Vaqti kelsa uni tub negiziga jiddiy ta'sir etish, uni yo'qotish va insoniylik elementlari va milliy ruhdan ajratadigan kuchga ham ega ekanligi ochiq ravshan bo'lib turibdi. Bu davrda jamiyat va millat yakdilligini saqlash, uni buzg'unchi g'oya va qarashlardan saqlash, tashqi axborot va boshqa resurslardan foydalanishda biz uchun "filtr" vazifasini bevosita bizning ma'naviyatimiz bajarishi lozim. Nafaqat individual tarzda, balki butun jamiyat va millat uchun ham ma'naviyat fundamental asos bo'lmog'i lozim.

Ma'naviyat haqida mingdan ortiq ta'rif va tavsiflar, u haqida munosabat va munozaralar mavjud. Xususan, mamlakatimizning birinchi Prezidenti Islom Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat _ yengilmas kuch" asarida ma'naviyatga quyidagicha ta'rif beradi: "Ma'naviyat insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlari me'zonidir"². Umuman olganda har bir shaxs o'zi uchun ma'naviyat tushunchasini o'zi yaratadi. Bu ruhiyat, e'tiqod, poklik va insonni ichki "meni". Ma'naviyat inson hayotida, fikrlashida, o'y hayollarida, amallarida insoniy xususiyatlar, halollik va mehr, odamiylik elementlarini butun ekanligi va uning namoyon bo'lishi. Jamiyat hayotida ma'naviyatning o'rni beqiyos hisoblanai. Qayerdagi ma'naviyat unsurlari yuqori bo'lgan taqdirda u yerda rivojlanish, hamjihatlilik, mehr-oqibat, halollik va insoniylik kamol topadi. Nega deganda ma'naviyatli inson bu mas'uliyatli inson, bu halol inson, bu jamoat manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'yuvchi inson hisoblanadi.

Biz o'z oldimizga jahonning rivojlangan manlaktarlari qatoriga kirishdek yuksak maqsadni qo'yar ekanmiz, bunda eng avvalo, yoshlarimizga tayanamiz. Bunda birinchi navbatda eng katta e'tiborni ularning tarbiyasiga, ma'naviyatiga ayniqsa, milliy ruhda tarbiyalanishiga qaratish lozim hisoblanadi. Jamiyatda ma'naviyatning o'rni haqida to'xtalib,

¹Google/com/amp/s/www.hebergamentwebs.com. Internet raqamlari. 2021

² I. Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, Ma'naviyat. 2008. 13-bet

mamlakatimiz Preidenti Sh. Mirziyoyev “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat³” deb ta’kidlaydi.

Yangi davr o‘zining shiddatkor ekanligi bilan harakterlanadi. Bu davrga kelib insonlar emas balki axborotlar hakatlanmoqda. Axborot istemoli biz uchun tabiiy ehtiyojlar qatoridan mustahkam o‘rin egallab bo‘ldi. Hozirgi kunda kerakli hamda tezkor axborotga ega bo‘lgan hamda uni o‘z talqini doirasida istemolchilarga yetkaza olgan kishi hech shubxaiz jamiyatni boshqarish va uni ma’lum bir maqsad sari yo‘naltira olish kuchiga ega bo‘lmoqda. Shuning natijasi o‘laroq insonlar hayotida yangi xalqaro termin vujudga keldi va u “mediokratiya” ya’ni “Axborot hokimiyati” edi. “Axborot hokimiyati – bu avvalo, kishilar ustidan ilmiy bilimlar, axborotlar va ularni tarqatish vositalari yordamida hukmronlik qilishdir”⁴. Bugungi kunda axborotlar oqimining asoiy vositasi “ijtimoiy tarmoqlar” hisoblanadi. Ular inson hayotining ma’lum ma’nodagi tabiiy ehtiyojiga aylanib qoldi deyish mumkin. Xususan Facebook ijtimoiy tarmog‘ini oladigan bo‘lsak: 2004 yilda ta’sischilari Mark Sukerberg va bir guruh Garvard universiteti talabalari tomonidan tashkil etilgan bu tarmoq hozirgi kunga kelib foydalanuvchilar aylanmasi bo‘yicha jahonda peshqadan hisoblanadi. Agar Facebook foydalanuvchilari yagona davlat fuqorolari bo‘lganida edi, ushbu davlat aholisi soni jihatidan dunyoda birinchi o‘rinda bo‘lardi. Ushbu tarmoq axborot tarqatish, yetkazish hamda olish uchun juda katta axborot makoni hisoblanadi. Tanganing ikki tomoni bo‘lgani singari, ushbu tarmoq va umuman ijtimoiy tarmoqlarda joylab boriladigan axborotlarning barchasi ham istemolga va inson ongi shuuriga ijobiy ta’sir va ma’naviy ozuqa bera oladi deya olmaymiz. Aksaryat qismi bevosita insonni to‘g‘ri yo‘ldan chalg‘itish, o‘z , boshqa maqsadi yo‘lida foydalanish, ongini va mafkurasini monipulyatsiya qilish tarzida qaysidir jamoa yoki yagona bir shaxs, davlat manfaatlarini amalga oshirish, ma’lum bir ijtimoiy guruh va boshqa tarzdagi millat, elat va irqnlarni ma’lum ma’noda tashqi amaliy hujumdan samarali bo‘lgan ruhiy va ma’naviy tarzda kuchsizlantirish va batamom manqurt holatiga keltirishni ilgari suradigan maqsadga aylanib bormoqda.

Ushbu jarayonlarda shamoli bevosita bizning yurtimizni ham chetlab o‘tayotgani yo‘q. Hamyurtlarimiz ham yuqorida ta’kidlab o‘tilgan ijtimoiy tarmoqlar va ularda joylab borilayotgan ma’lumotlarning bevosita istemolchilari hisoblanishadi. Bu holatda biz o‘zimiz uchun ma’lum bir himoya tizimi, milliy-ma’naviy himoya tizimini yaratishimiz va amaliyotga tatbiq etishimiz lozim. Bunda asosan: ma’naviyat + ta’lim + axborot ga e’tibor qaratilgan holda olib borilishi lozim. Bunda birinchi bosqichga e’tibor qaratadigan bo‘lsak ko‘pchilik insonlar ma’naviyat deganda faqat tarbiyani va ahloqni tushunadi. Aslida esa ma’naviyat bu

³ Sh.Mirziyoyev. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishidagi nutqidan. 19.01.2021

⁴ B. Isoqov. Ma’naviyat – taraqqiyot mezon. 122-bet

botun bir insonning borlig'i, fikrlashi, hatti harakati, so'zi, amali, munosabati, ruhiyati va boshqa botiniy xususiyatlariningv yuksak insoniy hislatlar bilan boyishi va uning hayot tarzida o'z aksini ko'ratishi demakdir. Aholi orasida bu masalaga faqatgina shu soha vakillari yondashishi va shug'ullanishi kerakligi singari ayrim qarashlar yuqori hisoblanadi. Aslini olganda bu masala mavqei, ijtimoiy kelib chiqishi va kasbidan qat'iy nazar jamiyatning har bir a'zosi shug'ullanishi lozim bo'lgan vazifa hisoblanadi. Shu o'rinda mamlakatimiz Prezidenti bu masalaga to'xtalib: "Agar kimdir, ma'naviyat masalasi – bu faqat Ma'naviyat markazi yoki tegishli vazirlik va idoralarning ishi, deb o'ylasa, xato qiladi. Bularning barchasi oldimizda turgan eng asosiy, eng muhim vazifalardan biridir"⁵. Jamiyatning har bir a'zosida daxldorlik hissini yuqori qilish orqali bu maqsadni aniq hamda samarali tashkil etis hamda amalga oshirish mumkin hisoblanadi. Milliy ruh hamda milliy g'urur-iftihor tuyg'usini shakllantirish hamda asrlar davomida sayqal topgan milliy mental xususiyatlar bilan boyitilgan tizimni aholi ongiga singdirish, ya'ni ma'naviyat haqida avvalo yakdil tarzda tushuntirish olib borish, uning qay darajada zarur hamda jamiyat va davlat hayotidagi o'rni va ahamiyati haqida aholi barcha qatlamlariga ma'lumotlar berish va ularda fundamental tushunchalar hosil qilish va shu orqali dastlabki harakatlantirish dastagini ishlab chiqish dastlabki bosqich mohiyatini tashkil etishdir. Ikkinchi bosqichda esa bevosita maktabgacha bo'lgan bosqichdan boshlab milliylik dastlabki elementlarini va ma'naviyatning negizini tashkil etuvchi fazilatlarini, ahloq odob va insoniy xususiyatlarni singdirib borish va unung butun bir ta'lim davomida uzviy tarzda davom etishini ta'minlash maqsadida umumiy o'rta ta'lim tizimida ham ma'naviyat va keying bosqichning asosi bo'lgan axborot sohasida yangi bir dastur asosidagi fanlarni, xususan: "jahon va milliy ma'naviyatimiz asoslari: tarix va bugun", "Axborot tahlili va klassifikatsiyasi" fanlarini kiritish. Jahon va milliy ma'naviyatimiz asoslari: tarix va bugun fani ikki qismni o'z ichiga oladi, bir qismi orqali maktab o'quvchilariga milliy ma'naviyatimizning vujudga kelish va shakllanish bosqichalari, u haqidagi daslabki tushunchalar va inson hayoti va kamolotidagi o'rni, unga xos hamda zid bo'lgan odatlar, ma'naviy inqiroz, sabablari va oqibatlar, istiqbolli rejalar hamda dasturlarni o'rgatib borish nazarda tutilgan bo'lsa, ikkinchi qismi orqali dunyo tajribasi, dunyoning rivojlangan mamlakatlari aholisining tarixi va bugungi kundagi o'ziga xos ma'naviyati, undan o'zimiz uchun olsa bo'ladigan jihatlari, ularda aks etgan umuminsoniy jihatlarni o'rganish nazarda tutiladi. Axborot tahlili va klassifikatsiyasi fani orqali esa bevosita hozirgi kun uchun hayotiy ehtiyoj bo'lgan axborot haqida, uning funksiyalari, tahlili, tasiri hamda turlari, uning tarmoqlari haqida chuqur tarzda ma'lumot berib boriladi. Buning natijasi o'laroq yuqorida ta'kidlaganimiz ma'naviyat bilan sug'orilgan yosh avlod immuniteti va ruhiyati endi axborot madaniyati bilan boyida hamda yana ham mustahkamlanib boradi. Uchinchi bosqichni esa axborot tashkil etadi. Qanday axborot degan haqli savol tug'ilishi mumkin? Bu bevosita o'z

⁵ Sh.Mirziyoyev. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishidagi nutqidan. 19.01.2021

vaqtida hamda to'g'ri yondashilgan holda istemolchilar uchun yetkazib berilgan axborot. Bunda asosiy vazifa jurnalist hamda bloggerlar zimmasiga tushadi. To'g'ri axborot ko'pchilik tomonidan berilishi mumkin, lekin yuqorida ta'kidlaganimizdek aholi katta qismi bugungi kunda ijtimoiy tamoqlar va messenjerlardan faol tarzda foydalanar ekan, yo'nalishni shu tomonga burish maqsadga muvofiq. Aholi uchun axborotga bo'lgan ehtiyoj talab darajasida, vaqti bilan undan ortiqroq darajada ham ta'minlab qo'yilgan taqdirda yod hamda buzg'unchi axborotlarga ehtiyoj qolmaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, hozirgi davrda jahonda va mamlakatimizda turli xildagi bizga ma'lum va noma'lum sabablar bilan milliy hamda umuminsoniy tamoyillarga zid keluvchi turli xildagi voqea hodisalar sodir bo'lmoqda. Uning talqini hamda insonlar tomonidan qabul qilsih jarayonida ham axborot sohasidagi oqsashlarga duch kelayotganligimiz ham sir emas. Ba'zilarini eshitib yoqa ushlaysiz, ba'zilarini eshitib nafratlanasiz, biz insonlar shu kunga keldikmi degan o'yga borasz, yana ba'zi axborotlardan lol qolasz, nahot?... Bugun biz o'zimiz uchun o'zligimiz va milliylikimiz, ma'naviyat va ruhiyatimiz, kelajagimiz va avlodlarimiz, vatanimizning ertasi va taqdirui uchun o'zimizni ma'naviyat vaksinasi bilan emlashimiz lozim. Jamiyatimining har bir a'zosi shu ona diyorimizning farzandi sifatida ushbu masalalarga vijdonan yondashib, o'zining insoniy burchini hamda faol fuqorolik pozitsiyasini namoyon qilgan holda yondashilsa hech qanday muammo o'z holicha qolmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. I.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent 2008. Ma'naviyat.
2. B.Isoqov. Ma'naviyat - taraqqiyot mezon. Namangan 2018. Namangan.
3. A.Mo'minov. Ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizlik. Toshkent 2017. Universitet.
4. www.hebergamentwebs.com